

Hayot mazmuni nimada?

Odam bilan tirikdir inson...

Inson hayotga kelar ekan, o'zi bilmagan juda ko'p narsalarning guvohi bo'laveradi. Boshimizga tushgan kichik bir "tashvish" yoki "g'am" bizni sinash uchun beriladi, bizning oq-u qorani tanishimizga yordam beradi. Lekin shuni bila turib ham ba'zan bunday holni unutamiz, oldimizda bizga yelkadosh bo'lib yashayotgan insonlar borligi xayolimizdan ko'tariladi.

Hozir fan-texnika gurkirab rivojlanayotgan bir paytda, hech bir narsa qarab turmaydi. Bugungi yangi, ertaga eski, indin yana boshqasi paydo bo'ladi. Kundalik turmushimizni kompyuter yoki telefonsiz tasavvur eta olmaymiz, lekin hayot faqat tarmoq (internet)dan iborat emas.

Eslayman, ishdan kelib, hamma o'z yumushi bilan band: biri telefon, boshqasi internet, yana biri dars, keyingisi esa kompyuter o'yinlari bilan mashg'ul. Bahor fasli bo'lgani uchun ob-havo tez-tez o'zgarib turardi. O'sha kuni kechga borib, osmon quyuq qora bulut bilan qoplandi. Shiddatli yomg'ir odamni qo'rqitadigan darajada yog'di. Biroz turib, kuchli shamol ko'tarilib, elektr toki ham o'chdi. Uydagilar bir-bir o'z xonalaridan telefon yorug'i yordamida to'plana boshlashdi. Xontaxta atrofi bir zumda to'ldi. Biroz turib bir-birlari bilan dildan suhbatlasha boshladilar. Oilamiz katta. Hali ancha o'tirishar, deb choy damlashga ahd qildim. Choy qaynayman deguncha, men ularning biri boshqasiga jo'shib gapirayotganini kuzatardim. Bir-birining yelkasini silab qo'yishlar, birga xandon otib kulishlar... menga kuchli ta'sir qildi. To'g'ri, elektr tokisiz hech bir ishimiz bitmaydi, lekin o'sha kuni negadir elektr toki o'chganiga juda xursand bo'ldim. Sababi oramizdagi bu iliqlik menga boshqacha kuch bag'ishlagan edi.

Ha, odam bolasi dunyoda yakka-yolg'iz yashamaydi, yashay olmaydi ham. Bu – odamzod paydo bo'lganidan buyon davom etib, kun sayin kuchayib borayotgan haqiqat. Inson tug'ilgan onidan boshlab butun umrini, butun hayot faoliyatini jamiyat ichida, odamlar orasida o'tkazadi, ya'ni ilmi yoki ijtimoiy mavqeyidan; yoshi yoki kasb-koridan qat'i nazar, har kun, balki har soat odamlar bilan muomalada bo'ladi. Shuning uchun u o'zini jamiyatga mos tutishga, ya'ni

tevaragidagi odamlarni hurmat qilishga, o'zi ham ulardan hurmat ko'rishga intilishi kerak. Bu esa har bir kishidan odamshavandalikni talab qiladi. Qars ikki qo'ldan chiqadi, deb bejiz aytilmaydi. Axir, unutmaylik, odamiylik insondagi ma'naviy go'zallik tarkibida muhim o'rin tutadi. Har neki bo'lsa, insonning fe'l-atvoridan keladi. Insonlar xushfe'l, shirinsuxan, mard, muomalasi shirin kishilarni dildan yoqtiradilar va hurmat qiladilar. Hurmat misqollab topiladi, ammo uni botmonlab yo'qotish oson. Ya'ni ko'p yillik yiqqan hurmatni odamlar orasida nomunosib bo'lgan bir-ikki yomon qiliq bilan osongina yo'qotib qo'yish mumkin... Shu sababli fozil kishilar eldan rahmat eshitsalar, kun-u tun bu rahmatga loyiq yana nima ish qilsam ekan? – degan orzu-havas bilan yashaydilar. Bunday odam doimo xalq hurmatida, uning diqqat-e'tiborida yashaydi va ulug' mavqega ega bo'ladi.

Demak, hayot juda murakkab, uning past-u balandi, achchiq-chuchugi bor, qiynchiliklarni yengish uchun kishi naqadar bardoshli bo'lmog'i lozim. Mana shunday vaqtda uni yolg'iz qoldirmaydigan yaqinlarining bo'lishi kishiga katta daldadir. Shu boisdan ham: "Odam bilan tirikdir inson", – deyishadi. Ardoqli adiba Tursunoy Sodiqovada o'qigan edim: "Yer yuzini bir-birini sog'inib, izlab, bo'zlab borayotgan yo'llar, so'qmoqlar birlashtirib, bir butun saqlab, parchalanib ketishga yo'l qo'ymas ekan". Ha, inson uchun hayotning ma'no-mazmuni odamlar bilan birgalikda, o'zaro yakdillikda, hamjihatlikdadir.

Q.Gadoyeva